

BIRJA QIMMATLI QOG‘OZLARI LIKVIDLILIGINING MOHIYATI VA O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Jo‘rayev Sarvar Davlat o‘g‘li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistranti

ANNOTATSIYA. *Mazkur maqolada birja qimmatli qog‘ozlari likvidliligi va ularning o‘ziga xos jihatlari borasida qimmatli xulosalar keltirilgan. Ushbu jarayonning bugungi iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rnini borasida mulohazalar keltirilgan.*

KALIT SO‘ZLAR: Birja, qimmatli qog‘ozlar, likvidlilik, narx, tovar.

KIRISH. Fond birja bozorlarini tahlil qilishda likvidlik muammosi asosiy o‘ringa chiqadi, chunki bozor konyunkturasining tez-tez o‘zgarishi natijasida xo‘jalik yurituvchi subyektlar uchun noaniqlik sharoitlarini yaratadigan ko‘plab raqobatdosh kuchlar mavjud. Likvidlik bozorlarning normal faoliyat yuritishi, shuningdek, moliyaviy aktivlarning adolatli bozor bahosi uchun zaruriy shartdir. Likvidlik tushunchasi lotincha “liguidus” so‘zidan olingan bo‘lib, “suyuqlik” degan ma’noni anglatadi. Likvidlik mustaqil iqtisodiy kategoriya sifatida hamda iqtisodiy hayotning ma’lum bir obyektlari (tovarlar, qimmatli qog‘ozlar) yoki milliy iqtisodiy subyektlari (bank, korxona, bozor) bilan bog‘liq boshqa tushunchalar bilan birgalikda keng qo‘llaniladi.

Likvidlik atamasi molianing turli sohalarida keng qo‘llanilganligi sababli, uning mazmuni tavsiflangan obyektga va qo‘llash sohasiga qarab sezilarli darajada farq qiladi. Bugungi kunga kelib, likvidlilik tushunchasi birja sohasida muhim ahamiyatga ega masalalardan biri hisoblanadi. Aytish lozimki, aktivni yuqori qiymatda tezda sotib olish yoki sotish qobiliyati likvidlik deb ataladi. Likvidlikni ortiqcha xarajatlarsiz operatsiyani bajarish qulayligi sifatida tushunish mumkin. Har qanday aktivga investitsiya qilishdan oldin uning darajasini baholash muhim. Likvidlik savdo va

buyurtmalarning to‘g‘ri bajarilishini ta’minlaydi. Xaridorlar va sotuvchilar ko‘pincha bozor va kutilayotgan buyurtmalar asosida birlashtiriladi¹. Agar qimmatli qog‘ozning likvidligi bo‘lmasa, bozorlar savdo qila olmaydi: qimmatli qog‘ozlar egalari o‘z aktivlarini sota olmaydi. Sotuvchi, o‘z navbatida, xaridorlarni jalg qilish uchun narxni pasaytirishi kerak.

Adabiyotlar tahlili

Birja qimmatli qog‘ozlarining likvidliliginin baholash likvidliliginin baholash muammosi kapital bozorlarini tadqiq etishdagi nazariy va amaliy tadqiqotlarda muhim o‘rin tutadi. Birja qimmatli qog‘ozlarining likvidliliginin baholash va uning o‘ziga xos jihatlari masalasi xorijiy va respublikamiz iqtisodchi olimlarining e’tiboridagi masalalardan biridir. Ammo aytish lozimki, likvidlik hali ham zamonaviy moliyada nisbatan kam o‘rganilgan tushunchalardan biri bo‘lib qolmoqda va uni talqin qilish, o‘lchash usullari va moliya bozorining boshqa xususiyatlariga ta’siri bo‘yicha ko‘plab bahs-munozaralar yuzaga kelmoqda. Ingliz olimi J.M. Keyns birinchilardan bo‘lib likvidlik atamasini izohlagan va uni tranzaksiyani bajarish uchun zarur bo‘lgan vaqt va undan kelib chiqadigan xarajatlarning kombinatsiyasi deb hisoblagan². Nemis tadqiqotchilaridan biri hisoblangan F. A. Fernandez o‘zining “Liquidity risk” (“Likvidlik xavfi”) nomli maqolasida likvidlik atamasi, uning iqtisodiy-moliyaviy jarayonlardagi ahamiyati boradida batafsil ma’lumotlar kelturib o‘tgan³. Nyu York universitetining professori L. Harris esa likvidlik tushunchasining birja qimmatli qog‘ozlarining likvidlilik darajasini baholashning muhim jihatlariga o‘z diqqatini qaratgan⁴.

Tadqiqot metodologiyasi

Birja qimmatli qog‘ozlari likvidliligining mohiyati va o‘ziga xos jihatlari masalasiga bag‘ishlangan ushbu maqolada analiz va sintez, abstraksiyalash, qiyoslash va analogik tahlil kabi metodlardan foydalanildi.

¹ www.mf.uz – O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirligi rasmiy sayti.

² Keynes J. M. A Treatise on Money. London, Macmillan, Vol. II, 1930.

³ Fernandez F. A. Liquidity risk. SIA Working Paper, 1999.

⁴ Harris L. Liquidity, trading rules, and electronic trading systems. New York University Salomon Center Monograph Series in Finance and Economics. № 4. 1990.

Tahlil va natijalar muhokamasi

Likvidlikning turli talqinlari va uni aniqlashtirishga yondashuvlar asosida likvidlikning 4 ta asosiy prognozi ko‘rsatib o‘tiladi: vaqt, hajm, tranzaksiya xarajatlari va narx. Ushbu prognozlarning har birini tavsiflovchi asosiy ko‘rsatkichlar aniqlanadi. Iqtisodiy tizimning likvid aktivlar bilan to‘yinganligini aks ettiruvchi eng muhim xarakteristikasi iqtisodiyotning monetizatsiya darajasidir.

Likvidlik - bu investorlar uchun juda muhim bo‘lgan tushunchadir. Past likvidlik investorlar o‘z investitsiyalari uchun ancha past foydaga ega bo‘lishlarini anglatadi. Institutsional investorlar savdo hajmi katta bo‘lgan kompaniyalarga pul tikish ehtimoli ko‘proq, ular sotilgan taqdirda hamisha xaridorlarga ega bo‘ladi. Investorlar va treyderlar o‘z portfellarining ko‘p qismini likvid bozorlar va aktivlarga ajratmaslik orqali likvidlik riskini boshqaradilar. Agar birjada savdo hajmi yuqori bo‘lsa, xaridor tomonidan taklif qilingan aksianing narxi va sotuvchi qabul qilishga tayyor bo‘lgan narx bir-biriga yaqin bo‘lishi kerak. Boshqacha qilib aytganda, xaridor ulushni sotib olish uchun ko‘proq pul to‘lashi shart emas va kelajakda uni osongina sotishi mumkin. Qimmatli qog‘ozlarning likvidliliqi qanchalik past bo‘lsa, uning savdosi shunchalik qiyin bo‘ladi. Bu xususiyat likvid bo‘lmagan aksiyalarni likvidlarga qaraganda kamroq jozibador qiladi. Ko‘pincha, ma’lum bir aksianing likvidligi ushbu ikki chegara o‘rtasida bo‘ladi. Aytish lozimki, qimmatli qog‘ozlar birjalarda osongina sotilishi mumkin bo‘lgan kompaniya aksiyalarini ifodalaydi. Ya’ni qimmatli qog‘ozlar yuqori likvidli aktivlar hisoblanadi.

Birja qimmatli qog‘ozlarining likvidlilik darajasini aniqlashda spredlar muhim ahamiyat kasb etadi. Spredlar aktivning buyurtmalar kitobidagi hajmlardan kelib chiqqan holda, eng yaqin bozor narxida buyurtmani faollashtirish va bajarish narxi o‘rtasidagi farq. Hamma narsa talab va taklifga bog‘liq. Agar vositaga ijobjiy yoki salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan yangiliklar chiqsa, u holda bozordagi savdo faolligi va u bilan birga likvidlik oshadi. Investorlar pul ishslash va buyurtma berishni boshlash imkoniyatini ko‘rishadi. Ushbu ssenariyda aksiya narxi tez-tez o‘zgarishi mumkin - bu o‘zgaruvchanlik deb ataladi. Aksiyalar uchun likvidlikni yaratishda erkin

muomala ko'rsatkichi muhim rol o'ynaydi - bu bozorda erkin sotiladigan qimmatli qog'ozlarning umumiy sonining bir qismi. Bu qism qanchalik katta bo'lsa, likvidlik shunchalik yuqori bo'lishi mumkin. Agar kompaniyaning 95 foizi bir kishi tomonidan boshqariladi, qolgan qismi esa boshqa investorlarga tegishli deb hisoblasak, ko'pincha uni likvid deb atash qiyin bo'ladi.

Amalda ko'plab obligatsiyalar, uchinchi darajali aksiyalar va opsonlar likvid bo'lмаган deb tasniflanishi mumkin. Bu ularni ishlatmaslik kerak degani emas, faqat investitsiya qilishda likvidlik omilini hisobga olish kerakligini aytadi.

Qoidaga ko'ra, eng yuqori likvidlik fond va obligatsiyalar bozorlarida, valyuta va fyucherslarda kuzatiladi. Ammo likvidlikning oshishi ma'lum bir vositaga bog'liq emas. U bozor va savdoda marketmeykerlarning mavjudligiga asoslanadi. Har doim past likvidlikka ega bo'lgan aktivlar mavjud. Misol uchun, ko'chmas mulk bozori, birjadan tashqari qimmatli qog'ozlar va hokazo. Asosan, katta investitsiyalar uchun likvidlik talab qilinadi. Agar aktivlar miqdori kichik bo'lsa, unda hatto likvidligi past bo'lgan vositalarda ham bitim tuza olish imkoniyati yuqori bo'ladi⁵.

Kelajakda investitsiya qilingan mablag'lar, masalan, ko'chmas mulk sotib olish uchun tezda talab qilinishi mumkin bo'lgan vaziyatda likvidlikni baholash juda muhimdir. Bunday holda, qimmatli qog'ozlarning likvidligini oldindan baholash muhimdir. Qimmatli qog'ozlar bozori vositalari - aksiyalar va obligatsiyalar - investor uchun eng likvid aktivlardir. Agar bozorda bitimlar muntazam ravishda amalga oshirilsa va sotib olish va sotish buyurtmalari narxlari o'rtaсидаги farq kichik bo'lsa, u yuqori likvidli hisoblanadi.

Xulosa

Mazkur tadqiqot ishi doirasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Qimmatli qog'ozlarning likvidligi deganda ularning naqd pulga aylanish qobiliyati, ya'ni ma'lum bir moliyaviy vositaga bozor talabining doimiyligi tushuniladi. Ushbu ko'rsatkich qimmatli qog'ozlar samaradorligining o'ziga xos xususiyati hisoblanadi. Chunki ularning yuqori likvidligi egasiga

⁵ Elmirzayev S.E. va boshqalar. "Moliya bozori". Darslik.-T.: "Iqtisodmoliya", 2019. – B. 221 .

(investorga), agar kerak bo'lsa, ular bo'yicha osongina daromad olish imkonini beradi.

2. Qimmatli qog'ozlar likvidligi darajasining asosiy xususiyatlaridan biri spreddir. Uning qiymati qanchalik kichik bo'lsa, bu qimmatli qog'oz shunchalik likvidli bo'ladi. Qimmatli qog'ozlarning likvidligi darajasiga ta'sir qiluvchi muhim omil - bu ma'lum bir emitentning qimmatli qog'ozlarining investitsion jozibadorligi, bu butun korxonaning ishslash ko'rsatkichlari va natijalar o'rtaqidagi munosabatlar tahlili ko'rsatkichlaridan iborat.
3. Umuman olganda, fond birjalarida ro'yxatga olingan aksiyalar boshqa ko'plab aktivlarga qaraganda likvidroq hisoblanadi. Buning sababi, odatda, ko'pchilik ularni sotib oladi va sotadi, ya'ni aksiyalarni naqd pulga almashtirish ancha oson hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Fernandez F. A. Liquidity risk. SIA Working Paper, 1999.
2. Keynes J. M. A Treatise on Money. London, Macmillan, Vol. II, 1930.
3. Elmizayev S.E. va boshqalar. "Moliya bozori". Darslik.-T.: "Iqtisodmoliya", 2019. - 324 b.
4. Toshmurodova B.E., Elmizayev S.E., Tursunova N.R. Moliyaviy menejment. Darslik/ O'zRO va O'MTV TMI. –T: "Iqtisod-moliya", 2017-338 bet.
5. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 56 b.
6. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 48 b.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 10 maydagi "Fond birjasida aksiyalarni ommaviy taklifini o'tkazishni tashkil etish to'g'risida"gi 268-sonli Qarori.
8. www.lex.uz O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
9. www.mf.uz – O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligi rasmiy sayti.
10. www.csm.gov.uz – Qimmatli qog'ozlar bozorini muvofiqlashtirish va rivojlantirish markazi.